

AMIR TEMIR SHAXSI VA SIYRATI XUSUSIDA MANBALARDAGI IXTILOFLAR.*Mahmadmurodov Behzod Narzi o'g'li**ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-kurs talabasi**Ibragimov Anvarbek Sodiq o'g'li**ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-kurs talabasi**Komilov Sobit**Ilmiy rahbar: ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Amir Temurning shaxsi, uning fazilatlarini, shaxsiga berilgan tariflar, irqi, urug'i borasida dunyo olimlari tomonidan bildirilgan munosabat, nazariya va muammolar xususida maqolada so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tamorlon, Temurlang, Temurbek, Temir podsho, Barlos, Ko'ragon, Jadiy, Mushtariy, Mirrix, Utorid, Hamal, Oftob davri, Yokate, Korasin viloyati, Medie viloyati, Jiyon daryosi, Suzis shahri, Temur Bey.

Аннотация: В статье рассматриваются взгляды, теории и проблемы, высказанные мировыми учёными относительно личности Амира Темура, его качеств, данных ему тарифов, его расы, его клана.

Ключевые слова: Таморлон, Темурланг, Темурбек, Железный король, Барлос, Коратон, Джади, Муштари, Миррих, Уторид, Хамал, Оптобская эпоха, Йокате, Хорасинский район, Медийский район, река Джиян, город Сузис, Темур-бей.

Annotation: The article discusses the attitudes, theories and problems expressed by world scientists regarding Amir Temur's personality, his qualities, the tariffs given to him, his race, his clan.

Keywords: Tamerlane, Temurlang, Temurbek, Iron Tsar, Barlos, Koragon, Jadiy, Mushtariy, Mirrikh, Utorid, Hamal, Aftab era, Yokate, Khorasan region, Media region, Jiyon River, Suzis city, Temur Bey.

Kirish. Tarixda Amir Temur shaxsi xususida turli xil qarashlar mavjud. Amir Temur bilan zamondosh bo'lgan, uni ko'rgan olimlar yoki Amir Temur bilan bir davrda yashagan, uni ko'rmagan olimlar, xorijiy yozuvchi va elchilar Amir Temur shaxsi haqida o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Amir Temur xususida yozilgan asarlar, manbalar ham bir-biridan ancha farq qiladi. Maqolada ushbu malumotlarni jamlab, farqli va o'xshash jihatlarini ko'rsatib berishga azm etdim.

Adabiyotlar tahlili. Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari, Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muhim tarixiy manba hisoblanadi. Asarda Amir Temur shaxsiga berilgan tariflarning ko'pi salbiy tarzda yozilgan bo'lib, asar ushbu jihati bilan boshqa manbalardan ancha farq qiladi. "Zafarnoma"-Amir Temurning hayoti va harbiy yurishlarini tasvirlovchi eng mashhur va muhim asar. Sharfuddin Ali Yazdiy, XIV asrning tarixiy tarixi Temuriylarning muhim davri va qismlaridan biridir. U "Zafarnoma"da Amir Temurning harbiy g'alabalari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va davlatni boshqarish uslublarini yoritib bergan. Asar milliy tarixiy voqealarni, balki Temurning shaxsiyatini ham chuqur

o'rganadi.

Germaniya olimi Herman Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asari, Buxoro va Movarounnahrda tarixiy jarayonlarni yoritadi. Asar XX asrda yozilgan bo'lib, Vamberi o'z asarida ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotini, Amir Temur va uning davriga taalluqli voqealarni yoritib bergan. Asarda Amir Temur shaxsi xususida ham to'xtalib o'tilgan.

Amir Temur Yevropa Elchilari Nigohida (Rui Gonsales de Klavixo Buyuk Amir Temur Tarixi (1403-1406). Sultoniya Arxiyepiskopi Ioan Amir Temur Va Uning Saroyi Haqida Xotiralari) asari ikki qismdan, ya'ni ikkita manbadan iborat asar bo'lib, ikki qismida ham Amir Temur shaxsiga tarif-u tavsif berilgan.

Muhokama va natijalar. Temurning asl ismi biz aytganimizdek, Tamorlon emas, Temurbekdir. Chunki Temurbek ularning tilida "temir podsho", podsho esa ular tilda "bek" degani. Tamorlon teskari, ya'ni tahqirlash ma'nosini anglatadi. Temurbek bir vaqtlar jangda yaralangan va o'ng oyog'i bilan qo'lining ikki barmog'i shikastlangan edi.¹

Sharq-u g'arbda g'ul'g'ulani oyoqqa turg'azgan fosiqlar boshligi, dajjol oqsoq Temur qissasidir. Bevafo dunyo Temurga (tomon) boqdi, u hokimiyatga egalik qilib, yer yuzida yelib-yugurdi, dunyoni alg'ov-dalg'ovga to'ldirib, ekin-tikin va naslni halok etdi. Temur avvalo pok yerni o'z hukmiga bo'ysundirib, tuproqdan tayammum qildi, so'ng shuhratli ulug' kishilarni tug'yon qilichidan o'tkazib, ular qonidan g'usl qilib, shu tariqa o'zini tozaladi.

Temur va uning otasi baqiroq cho'ponlardan bo'lib, na aqli-yu na dini bo'lmagan avom kishilar toifasidan ekan. Yana aytadilarki, u mulozim odamlardan, past tabaqa tanballardan bo'lgan. Ularning panohgohi Movarounnahr bo'lib, o'sha atroflar esa qishlov joylari bo'lgan. Yana aytishlaricha, Temurning otasi benihoya faqir etikdo'z, o'zi esa puxta va keskin bir o'spirin bo'lgan. Lekin (oiladagi) yetishmovchilik to'fayli u noxush ishlar bilan kun kechirib, shu «o'rtanish» sababidan g'azablanar va ich-ichidan kuyinar ekan. Kechalarning birida u bir qo'yni o'g'irladi va uni orqasiga o'ngarib oldi. Shunda cho'pon kamon o'qi bilan uni yelkasidan urib yaraladi va yana bir o'q bilan uni sonidan jarohatlab, holdan toyg'izdi.²

Ibn arabshohning yozgan asaridagi ushbu ma'lumotlar haqiqatdan yiroq, chunki bu kabi boshqa manbalarda bunday salbiy fikrlar deyarli uchramaydi. Asardagi ayrim ma'lumotlar ham boshqa manbalardagi ma'lumotlarga teskari tartibda yozilgan.

Barlos urug'ining Ko'ragon tarmog'idan Temurbekning chiqishi katta voqea bo'ldi. Bu shaxs Yevropada Tamerlan yoki Temurlang nomi bilan mashhur. 736-yil (1333-yil) sha'bon oyining beshinchi kuni seshanba oqshomida Keshning "Shahrisabz" deb atalgan mahallasi yagona yam-yashil hudud bo'lgani uchun tug'ilgan. Keyin butun shahar shu nom bilan ataldi. Temurning otasi To'rg'ay barlos urug'ining boshlig'i edi.³

Temur baland qadli, uzun bo'yli, tik qomatli, go'yo u qadimiy pahlavonlar avlodlaridan bo'lib, keng peshanali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bolalik, rangi oq-u qizil yuzli, lekin dog'siz, bug'doy rang emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan,

¹ Amir Temur Evropa Elchilari Nigohida (Rui Gonsales de Klavixo Buyuk Amir Temur Tarixi (1403-1406). Sultoniya Arxiyepiskopi Ioan Amir Temur Va Uning Saroyi Haqida Xotiralari). T.: 2007. 71-bob. 74-bet.

² Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. (Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur). I—II qismlar. T.: 2019. 75-77-betlar.

³ Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: 1990. 21-bet.

sersoqol, o'ng oyoq-qo'li cho'loq va shol, ikki ko'zi bamisoli ikki sham bo'lsa-da, shodligi bilinmas, yo'g'on ovoqli edi; u o'limdan qo'rqmas, yoshi saksonga yetgan bo'lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgi-yu ko'ngil xushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi; «u (bo'lib) o'tgan ishga aziyat chekmas» va o'ziga hosil bo'ladigan (yutuq)dan shodlanmas edi. Ko'pincha uning majlisida uyatsiz so'zlar, qon to'kish, asir olish, nahb-u g'orat qilish va haram (haqi)ga haqorat gaplar bo'lmasdi. Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo'lib, jasoratli (kishi)larni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi, U ular yordamida dahshatli joylar qulflarini fath etib, odamlar sherlarini o'lja qilar, ular zarbalari bilan baland tog'lar cho'qqilarini vayron qilardi. U bexato (nishonga uruvchi) fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz (darajada) baxtli, ulug'vorligi (o'ziga) muvofiq, qat'iy azm bilan so'zlovchi, (boshiga) kulfat tushganda ham haqgo'y (kishi) edi⁴

Aning uchunkim, bu sohibdavlatning toil'i Jadiy burjida tushti. Ba bu burjning xosiyati ul tururkim, har kim bu burjdag'i toli'ida mutavvallud bo'lsa, kamoli saltanat avjida yetkay va barcha salotinlarg'a sarvar bo'lub, har nakim kungliga kechkay, anga muyassar bo'lg'ay.

Va nayyiri a'zam, yani Oftobkim, jalolatning yulduzi turur, turtinchi vataddakim, qaror va sabot evi turur va o'z erida sharaf bila Utoridqa nechukkim, Oftob davri bo'lg'ay, yigirmi ikkinchi daraja Hamalda fath va firuzluq alamini ko'tarib, iqbol manshurining saodat tavqi'I bila yasab tururkim, zuhuri mahalliyda o'z maqomi aslida zohir bo'lg'ay va anda podshohliq qilg'ay. Va ul mamlakatni zebu ziynat bobida barcha mamlakatlardan yaxshiroq tarbiyat qilg'ay. Va Mushtariykim, saodatning kavkabi turur, va Mirrixkim, quvvat va shavkat yulduzi turur, beshinchi toli'kim, farzand evi turur, bu kavkablardan yirik bu xosiyat berdikim, bu saodatmand farzandqa Haqq subhonahu va taolo davlatmand o'g'ullar karomat qilg'ay va davlat alarning ichida mustadom bo'lg'ay.⁵

U kelib chiqishi bo'yicha sharqlik tatarlardan bo'lib, ularning millati Yokate (Chig'atoy) deb ataladi, ba'zilarning fikricha, shu tomonlarda Isus Xristosga (Iso Masih) teng keladigan uch qirollik o'tgan ekan. Bu o'lkaga Hindiston tomonidagi forsdan keyin keladigan Korasin viloyati (Xuroson), Medie viloyati (Ozarbayjon) va boshqa viloyatlar kiradi. Bu o'lka tarkibiga kiruvchi yana bir shahar-Temur Beyning shahri Semerkantdan (Samarqand) juda yiroqda, yuz kunlik Masofada, Jiyon daryosidan narida-Forsda joylashgan Suzis (Suza) shahridir⁶

Xulosa. Amir Temur shaxsining fazilatlarini, fe'l-atvori, qiyofasi, kelib chiqishi xususida Temur zamondoshlari bo'lgan, u haqida asarlar yozgan olimlar, Yevropalik elchilar asarlari, esdaliklarida ancha mufassil bayon etilgan. Temur shaxsiga bo'lgan tarif va talqinlar orasida salbiy tarafdin yondashilgan asarlar mavjud bo'lib, Amir Temur shaxsi xususida bahs va munozaralar, ixtiloflar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

⁴ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. (Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur). I—II qismlar. T.: 2019. 393-394-betlar.

⁵ Sharfuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: 1997. 13-bet.

⁶ Amir Temur Evropa Elchilari Nigohida (Rui Gonsales de Klavixo Buyuk Amir Temur Tarixi (1403-1406). Sultoniy Arxiyepiskopi Ioan Amir Temur Va Uning Saroyi Haqida Xotiralari).T.: 2007. 174-175-b.

Foydalanilagan manba va adabiyotlar.

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. (Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur). I—II qismlar. T.: 2019.
2. Sharfuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: 1997.
3. Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: 1990.
4. Amir Temur Evropa Elchilari Nigohida (Rui Gonsales de Klavixo Buyuk Amir Temur Tarixi (1403-1406). Sultoniya Arxiyepiskopi Ioan Amir Temur Va Uning Saroyi Haqida Xotiralari). T.: 2007.